



## TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILARDA PSIXOLOGIK O'ZGARISHLARNI O'RGANISH

**Hamdamova Nigora Olimovna**

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'quvchi shaxsining psixik o'sishidagi kamchiliklar, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlar mavjud emasligi, o'quvchining intilishi bilan mavjud imkoniyati o'rtasidagi nomutanosibliklar haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *O'quvchi, xulq, iroda, tarbiya, xarakter, hissiyot, nazorat.*

**Аннотация:** *В данной статье размышляются недостатки умственного развития личности учащегося, безволие, слабость эмоций, отсутствие необходимых потребностей и интересов, а также несоответствие стремлений учащегося имеющимся возможностям.*

**Ключевые слова:** *Студент, поведение, воля, воспитание, характер, эмоции, контроль.*

**Abstract:** *This article reflects on the deficiencies in the mental growth of the student's personality, the lack of will, the weakness of emotions, the lack of necessary needs and interests, and the disparity between the student's aspirations and the available opportunities.*

**Key words:** *Student, behavior, will, education, character, emotion, control.*

### KIRISH

O'qituvchilar jamoasi har qancha urinishidan qat'i nazar, ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda, bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l-atvordagi nuqsonlarning, xatti-harakati nosog'lomligining oldini olish va tuzatish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. O'quvchilarda nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilari har xildir. O'smirning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi qiyinlarni keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash joizki, barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi yoshlarimiz orasida ham tarbiyasi og'ir va noqobil farzandlar mavjud bo'lib, ularning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishlash azaldan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra (Dubinin N.P., Sergeyev B.F. va boshqalar) shaxsning genetik xususiyatlari, tug'ma kasallik va xususiyatlar ham uning xulq-atvoriga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatar ekan. Shu bilan birga, bu muammoning kelib chiqishiga bir qancha tashqi sabablar ham ta'sir



qilishi mumkin. Masalan, televizor, kompyuter, internet axborotlari, kattalarning e'tiborsizliklari, oiladagi krizis va boshqalar. Mazkur omillarni inkor etmagan holda ushbu muammoning asosiy sabablarni bolaning psixik shakllanishidan ham qidirish mumkin.

O'spirin aqlli qaror qabul qilishga ongli harakatlar sodir etishga va ular uchun axloqiy va huquqiy jihatdan mas'ul bo'lishga qodir. Shuni ta'kidlash joizki, o'spirin o'z xatti-harakatlari uchun huquqiy javobgarlikka tortiladigan shaxsdir. Garchi qonun voyaga yetmaganlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishini inobatga olib, ular uchun cheklangan javobgarlikni belgilasa ham katta o'spirinlik va o'smirlik davrini shaxsiy javobgarlik bilan xarakterlanadigan yosh deb qabul qilsak bo'ladi.

Binobarin ta'lim muassasalari xarakterining o'zgarishi tarbiyasi qiyin o'quvchilar korreksiyasi jarayoniga faqat o'qituvchilarni emas, balki keng jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash zaruratini taqozo etadi. Aytish joizki, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashga psixologik yondashuv konsepsiyasining mohiyati mutaxassislar va jamoatchilik sa'y-harakatlarini tarbiyasi qiyin o'quvchilar hayotiy faoliyatini optimal sharoitlarini ularning shaxslilik xususiyatlarini hisobga olgan holda mazmuniy va tashkiliy-metodik ta'minlash uchun kompleks, ilmiy jihatdan asoslangan koordinasiyalashgan holda birlashtirish dan iborat.

Ish davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, psixologning ta'lim muassasasi sharoitidagi ishi kompleks xarakterga ega bo'lib, ma'ruza, treninglarni o'z ichiga olgan seminarlar, treninglar, ish o'yinlari kabi faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab olishi kerak. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashga psixologik yondashuv modelining asosiy maqsadi o'qituvchi ishining taktika va strategiyasini kasbiy-shaxslilik rivojlanishi hisobiga o'zgartirish hamda tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan korreksiya ishlari jarayoniga keng doiradagi jamoatchilikni jalb qilishdan iborat. Model ikki qismdan tashkil topgan:

Birinchi qism, "o'qituvchi" deb nomlanib, psixolog-o'qituvchi diadasidagi o'zaro ta'sirni tashkil etadi. Mazkur qismning mazmuni o'qituvchining kasbiy shaxslilik xususiyatini deviant o'smir xususiyatlarini korreksiyalash bilan faollikning yaratilishi bilan belgilanmas.

Ikkinchi qism esa shartli ravishda "Jamoatchilik" deb nomlanib, o'qishdan tashqari vaqtda bolalar va o'smirlar bilan bevosita bog'liq mutaxassislarning keng doiradagi o'zaro ta'sirini tashkil etadi. Bu modulning xususiyati psixolog va o'qituvchi o'zaro ta'sir doirasini unga davlat va jamoat tashkilotlarini qo'shish hisobiga kengaytirishdir.

Bundaylarga quyidagilar kiradi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish bo'limi mutaxassislari;
- voyaga yetmaganlar bilan ishlash inspektorlari;
- o'smirlar uchun xavfli profil shifokorlari (narkologlar, venerologlar),
- ginekologlar, infeksiyalar, ftiziatriklar va h.k.);
- tumandagi sport tashkilotlari mutaxassislari;



- mahalla, yoshlar tashkilotlari vakillari va boshqalar.

Treninglar. Trening guruhlarini shaxsni rivojlantirishga, samarali kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga, o'zini va boshqalarni anglash sohalarini kengaytirishga yo'naltirilgan. Ishning mazkur modeli – faol bo'lib, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda dolzarb hisoblangan xulq-atvor ko'nikmalariga o'rgatishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari trening guruhini psixologik qo'llab-quvvatlashidan foydalanib, o'z muammolarini hal qilish yo'llarini mustaqil tuzib olishlari uchun imkon beradi.

Hozirgi paytga kelib, bir qator tadqiqotlarda o'qitishning faol metodlarining an'anaviy metodlarga qaraganda ustunlikka ega ekanligi ko'rsatildi. O'qitishning faol metodlaridagi markaziy g'oya to'sqinlik qiluvchi chegaralanishlar, to'siqlar komplekslarni olib tashlash yo'li bilan shaxs salohiyatini ozod etib, uning rivojlanishiga yordam berishga intilishdan iborat. Biz taklif etayotgan dasturning maqsadi – xulq-atvor egiluvchanligini rivojlantirishdir, ya'ni psixolog tomonidan o'quvchiga nisbatan munosabatda individual-shaxslilik prinsipiga, shuningdek o'z ishidan qoniqish olib, ham o'qituvchi, ham o'quvchi shaxsining ijodiy rivojlanish prinsiplariga tayangan holda ishlash imkoniyati va zaruratini asta-sekin anglashdir.

Boladagi salbiy illatlarni oldini olishda va bartaraf etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim;
- Bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak;
- “Tarbiyasi og'ir” bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozim.
- Maktab hududida ko'cha-ko'yda, o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
- Bolaga bo'sh vaqtdan unumli foydalanish yo'llarini o'rgatib borish va uni nazorat qilish;
- Ijtimoiy foydali mehnat turlaridan unumli foydalanish;
- Bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda to'g'araklarga qatnashtirish;
- Ijodiy qahramonlarning xatti-harakatlari, yutuqlari, shu yutuqlarga erishish uchun kurashlari kabilarga e'tibor qaratish;
- Barcha darslarda o'sha tarbiyasi og'ir bolani iloji boricha bir daqiqa ham nazardan qoldirmaslik. Ota-onalarni psixologik bilimlardan xabardor bo'lishini ta'minlash;
- Maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar: har-xil kechalarda, o'z tengdoshlari davrasida, o'rtoqlari orasida unga so'z navbatini berish, ularda faol bo'lishini ta'minlash;
- Gazeta, radio, televideniya va jurnallardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;



– Rag'batlantirish metodlarini ishlatib ko'rish. Lozim topilganda olgan baholarga yarim ball, bir ball qo'shish, yutuqlarini sinfda, maktabda me'yorida ta'kidlab qo'yish lozim.

Agar bola tartibsiz, intizomsiz davraga o'ralashib kirib qolgan bo'lsa, uni tezlik bilan o'sha davradan ajratib olib, so'ng o'sha tarbiyasi og'ir bolani "yaxshi" va "a'lo" baholarga o'qiydigan intizomli o'quvchilarga biriktirib qo'yish kerak.

### **XULOSA**

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan buyon jamiyatimizda kelajagimiz bunyodkori bo'lgan yoshlarga nisbatan bo'lgan e'tibor ancha kuchayadi. Ayniqsa xalq ta'limi sohasida jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Bugungi kunda o'quvchilar tarbiyasidagi ijobiy o'zgarishlarni har damda sezish mumkin.

O'zbekistonni butunjahon tan olayotgan bir paytda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash muhim omillardan biri bo'lib hisoblanmoqda. "Kelajakka qanday yoshlar kerak? Ularni qanday tarbiyalash lozim?" degan savollar hozirgi kunda har bir jonkuyar pedagogni tashvishga solib kelmoqda. Bola maktab ostonasiga qadam qo'ygunga qadar oiladagi olti, yetti yillik hayoti mobaynida oila birinchi darajali tarbiyachi ekanligini ham nazarda tutish lozim.

Bolalar narsa va hodisalarning mohiyatiga o'zlaricha baho beradilar. Ular ezgulik mezonini intilishlari mo'ljalini dastavval ota-onalari hayoti tarziga qarab belgilaydi. Yaxshi tarbiya berib yaxshi kishilarni kamol toptirgan oilalardagi sofdillik, samimiylik, bir-biriga hurmat, bolalarda ham shu fazilatlarini kamol topishiga sabab bo'ladi. Ahil oilada bolaning xulq-atvori me'yorlari to'g'risidagi tasavvuri ota-onalarning xulqi bilan uyg'un bo'lsa farzandlarini oqilona so'rab – tergap tursalar bu uydan tarbiyasiz bola chiqishi mumkin emas. Harqalay haqiqat, mehr-oqibat, adolat tushunchalari, ichi qoralik, loqaydlik, ma'naviy zaiflik, insoniy munosabatlardagi qashshoqlik, axloqiy nopoklik hukm surgan oilalarda o'sgan bolalarning tarbiyasi ko'pincha izdan chiqadi. Bola yaxshilik va yomonlikka, haq va nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo'ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaqlikka xato deb tushunish mumkin bo'lsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushunmaydi.

### **FOYDALANILGAN ABIYOTLAR**

1. "Bolalar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – farovon va taraqqiy etib boruvchi jamiyat asosi" –RBIMM Xalqaro forumining materiallari. Toshkent-2013 130-131 b, 185-186 b
2. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – T; Ma'naviyat- 2009-155 b
3. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" - T; Sharq-1998 -164 b
4. Mannopov S.M. "Oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiyasi" Ma'ruzalar matni;. Farg'ona-2007 235 b



5. Komilova N.G'. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2007 105 b
6. G'oziyev E.G'. "Pedagogik psixologiya" – Universitet. Toshkent – 1997 134 b
7. Abdulla Aloniy "Turkiy guliston yoxud axloq"- Toshkent; O'qituvchi-1992 -22-23 b
8. Inomova K.M. "Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi"- Toshkent; Fan-1999 151 b